XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 13-may VII-18-49-8-108-K/26 Oltinsoy tumani

Oltinsoy tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi Nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika aerogodeziya markazi Surxondaryo hududlararo boʻlinmasining 2024-yil 8-avgustdagi Oltinsoy tumani hokimiga yuborilgan 01-117-sonli xat orqali maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Oltinsoy tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2026-yil 2-apreldagi 03-01/17-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Oltinsoy tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan Oltinsoy tumani bilan chegaradosh boʻlgan Denov, Shoʻrchi va Qumqoʻrgʻon tumanlari oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq, yoʻl, va boshqa tabiiy hamda sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻiga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi **TURDIYEV AKRAM ABDIMURATOVICH**

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2026-yil 13-maydagi
VII-18-49-8-108-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanining chegara

TAVSIFI

Qumqoʻrgʻon, Denov va Oltinsoy tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joydagi nomsiz soyning oʻng tomonida joylashgan nuqtani boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi. WGS-84 koordinatalar tizimda *(shimoliy kenglik 38°19'0,28", sharqiy uzunlik 67°34'37,21").*

A dan B gacha Denov tumani yerlari bilan 1-26 nuqtalar oraligʻidagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara avval toʻgʻri chegara chizigʻi orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 994 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 420 metr, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 249 metr, soʻngra soyning suv oqimi boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda chap tomoni bilan 78 metr, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 193 metr masofani oʻtib 2-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°19'0,28", sharqiy uzunlik 67°34'37,21").*

2-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali soyni kesib oʻtib avval sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 414 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1958 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1844 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 784 metr masofani oʻtib soy qirgʻogʻida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°20'29,07", sharqiy uzunlik 67°37'13,46")..*

3-nuqtadan chegara soyning suv oqimi boʻylab avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda chap qirgʻogʻi bilan 218 metr, keyin toʻgʻri chegara chizigʻi orqali shimoliy yoʻnalishda 138 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 68 metr, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 40 metr masofani oʻtib 4-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°20'27,41", sharqiy uzunlik 67°37'24,60")..*

4-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 104 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 71 metr, soʻng quruq chegara chizigʻi orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 40 metr, soʻngra sharqiy yoʻnalishda 67 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 47 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 74 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 211 metr masofani oʻtib 5-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°20'30,42", sharqiy uzunlik 67°37'39,82")*..

5-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali avval janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 191 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 47 metr, soʻng dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 111 metr, soʻng janubiy yoʻnalishda 99 metr, soʻngra sharqiy yoʻnalishda 530 metr, keyin quruq chegara chizigʻi orqali soʻng umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 681 metr masofani oʻtib 6-nuqtaga *(shimoliy kenglik 38°20'41,69", sharqiy uzunlik 67°38'29,70")*..

6-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda 487 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 171 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 100 metr, soʻngra quruq chegara chizigʻi orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 127 metr, keyin soyning suv oqimi boʻylab umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda chap qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4512 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°19'35,01", sharqiy uzunlik 67°41'1,17")*.

7-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali soyni kesib oʻtib, avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1165 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2514 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 992 metr, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1133 metr masofani oʻtib, soy qirgʻogʻida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'55,39", sharqiy uzunlik 67°43'10,48")*.

8-nuqtadan chegara chizigʻi soyning suv oqimi boʻylab avval umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda oʻng qirgʻogʻi bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4415 metr masofani oʻtib soy qirgʻogʻida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°17'39,98", sharqiy uzunlik 67°44'29,64")*.

9-nuqtadan chegara chizigʻi avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda soyning suv oqimi boʻylab 1875 metr, keyin soyga tutashadi va sharqiy yoʻnalishda 218

metr masofada soyni kesib o‘tib so‘ng, ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 88 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda o‘ng qirg‘og‘i bilan umumiy barcha burilishlarni hisobga olgan holda 168 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 10-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'19,69", sharqiy uzunlik 67°45'17,08").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 207 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 236 metr, so‘ng zovurning chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 329 metr, so‘ngra soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 115 metr, keyin dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 322 metr masofada soyni kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 11-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°17'21,88", sharqiy uzunlik 67°45'56,30").*

11-nuqtadan chegara chizig‘i yo‘lning janub tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 318 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 323 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 227 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 737 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda o‘ng tomoni bilan 208 metr masofani o‘tib, soy qirg‘og‘i bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'7,93", sharqiy uzunlik 67°47'10,58").*

12-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda 567 metr, keyin janubiy yo‘nalishda chap qirg‘og‘i bilan 173 metr o‘tib, so‘ng qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 200 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 138 metr masofada ariqni kesib o‘tib, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda o‘ng tomoni bilan 203 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°16'41,95", sharqiy uzunlik 67°47'25,47").*

13-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab avval umumiy janubiy yo‘nalishda o‘ng tomoni bilan 652 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 155 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 14-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°16'29,30", sharqiy uzunlik 67°47'19,88").*

14-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1100 metr masofani o‘tib,

ariq bo‘yidagi 15-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°16'3,16", sharqiy uzunlik 67°47'0,32").*

15-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 100 metr, keyin quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 697 metr, so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 639 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 442 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 16-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°15'50,02", sharqiy uzunlik 67°47'16,28").*

16-nuqtadan chegara chizig‘i Xazarbog‘ kanalini kesib o‘tib, ariqga tutashadi va umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2307 masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°15'32,69", sharqiy uzunlik 67°48'30,53").*

17-nuqtadan chegara chizig‘i Oqqopchig‘ay kanalining suv oqimi bo‘ylab avval janubiy yo‘nalishda chap tomoni bilan 717 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 922 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1105 metr masofani o‘tib, Oqqopchig‘ay kanali bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°14'30,99", sharqiy uzunlik 67°47'23,05").*

18-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan avval janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 512 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 78 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 115 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 74 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°14'12,71", sharqiy uzunlik 67°47'19,14").*

19-nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 84 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 344 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 95 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 99 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 145 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°14'1,11", sharqiy uzunlik 67°47'23,34").*

20-nuqtadan chegara chizig‘i avval janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 82 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 60 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 49 metr, so‘ngra sharqiy-

janubiy-sharqiy yo‘nalishda 247 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°13'51,75", sharqiy uzunlik 67°47'33,26").*

21-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 189 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda1319 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°13'29,13", sharqiy uzunlik 67°48'19,76").*

22-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1412 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°12'51,73", sharqiy uzunlik 67°48'43,06").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 204 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 46 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 611 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 188 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°12'29,60", sharqiy uzunlik 67°48'55,66").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4345 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°10'38,26", sharqiy uzunlik 67°49'50,57").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab avval janubiy-sharqiy yo‘nalishda o‘ng tomoni bilan 1905 metr, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab umumiy janubiy yo‘nalishda chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 44 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°10'5,79", sharqiy uzunlik 67°50'42,42").*

A dan B gacha Sho‘rchi tumani yerlari bilan 26-51 nuqtalar oralig‘idagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

26-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 3366 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 112 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 329 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 27-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°10'39,44", sharqiy uzunlik 67°48'42,38").*

27-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 171 metr, keyin zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 50 metr masofada zovurni kesib oʻtadi va soʻng janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomononi bilan 706 metr, soʻngra dala tuproq yoʻlining gʻarbiy tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 279 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 28-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°10'27,57", sharqiy uzunlik 67°48'10,67").*

28-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 88 metr, keyin avtomobil yoʻlini kesib oʻtib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 471 metr oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyidagi 29-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°10'12,29", sharqiy uzunlik 67°48'19,15").*

29-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 31 metr, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan barcha umumiy burulishlarni hisobga olgan holda janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 125 metr, soʻng janubiy yoʻnalishda 2670 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 30-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°8'51,99", sharqiy uzunlik 67°48'41,70").*

30-nuqtadan chegara chizigʻi avval ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy barcha burulishlarni hisobga olgan holda janubiy yoʻnalishda 1127 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 280 metr, soʻng ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy barcha burulishlarni hisobga olgan holda janubiy yoʻnalishda 1919 metr, soʻngra quruq chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 29 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 97 metr, masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 31-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°7'27,56", sharqiy uzunlik 67°48'52,76").*

31-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 138 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 171 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 210 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 405

metr, keyin qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 124 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 235 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 32-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°7'37,91", sharqiy uzunlik 67°48'7,11").*

32-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 97 metr, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 359 metr, soʻng zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy barcha burulishlarni hisobga olgan holda janubiy-sharqiy yoʻnalishda 196 metr, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 156 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1605 metr, masofani oʻtib zovur boʻyidagi 33-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°7'37,81", sharqiy uzunlik 67°47'9,98").*

33-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1137 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 23 metr, soʻng janubiy yoʻnalishda 450 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 233 metr, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 130 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 34-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°7'57,05", sharqiy uzunlik 67°46'43,20").*

34-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval janubiy yoʻnalishda 55 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 59 metr, soʻng Tentak soyning suv oqimi boʻylab chap qirgʻogʻi bilan umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1935 metr, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda 278 metr, keyin soyning janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 117 metr toʻgʻri chegara chizigʻi orqali Tentak soyni kesib oʻtib 35-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°6'51,37", sharqiy uzunlik 67°46'59,27").*

35-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 289 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 65 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 163 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 36-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°6'54,51", sharqiy uzunlik 67°46'45,89").*

36-nuqtadan chegara chizigʻi avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qrashi chap tomoni bilan 124 metr, keyin dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 307 metr, soʻng quruq chegara chizigʻi orqali

janubiy yoʻnalishda 176 metr, soʻngra ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 949 metr, keyin qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 79 metr, masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyidagi 37-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°6'11,53", sharqiy uzunlik 67°46'19,57").*

37-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 701 metr, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 203 metr, soʻng janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 215 metr, soʻngra umumiy barcha burulishlarni hisobga olgan holda janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1232 metr masofani oʻtib ariq boʻyidagi 38-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°5'57,79", sharqiy uzunlik 67°45'43,46").*

38-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 457 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 178 metr, soʻng zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 159 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 111 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1193 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 39-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°6'13,56", sharqiy uzunlik 67°44'37,60").*

39-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval janubiy yoʻnalishda 508 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 98 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtadi va soʻng ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy barcha burulishlarni hisobga olgan holda gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 547 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 341 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 93 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 189 metr, soʻngra janubiy yoʻnalishda 76 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 779 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 40-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°5'15,51", sharqiy uzunlik 67°43'46,96").*

40-nuqtadan chegara chizigʻi avval gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 388 metr, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 295 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 222 metr, soʻngra janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 238 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 41-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°4'51,88", sharqiy uzunlik 67°43'25,87").*

41-nuqtadan chegara chizigʻi avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 650 metr, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 597 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 42-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°4'42,79", sharqiy uzunlik 67°43'3,59").*

42-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1588 metr, keyin quruq chegara chizigʻi orqali janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 368 metr, soʻng umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1163 metr masofani oʻtib 43-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°3'33,23", sharqiy uzunlik 67°43'54,17").*

43-nuqtadan chegara chizigʻi avval hovuzning o'ng tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 205 metr, keyin qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 174 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 138 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 250 metr, keyin quruq chegara chizigʻi orqali umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1134 metr masofani oʻtib 44-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°2'54,21", sharqiy uzunlik 67°44'6,18").*

44-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan avval umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 490 metr, keyin ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 469 metr, soʻng janubiy yoʻnalishda 365 metr masofani oʻtib, ariq boʻyidagi 45-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°2'30,06", sharqiy uzunlik 67°44'36,65").*

45-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda 103 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 190 metr, soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 67 metr, soʻngra janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 53 metr, keyin quruq chegara chizigʻi orqali sharqiy yoʻnalishda 165 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 91 metr, soʻngra janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 96 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 176 metr, soʻng quruq chegara chizigʻi orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 586 metr, soʻngra janubiy-sharqiy yoʻnalishda 132 metr masofani oʻtib 46-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°2'9,37", sharqiy uzunlik 67°45'15,99").*

46-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 290 metr, keyin zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 472 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 240 metr masofada zovurni kesib oʻtadi va soʻngra quruq chegara chizigʻi orqali gʻarbiy yoʻnalishda 39 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, keyin qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 283 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 207 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°1'34,24", sharqiy uzunlik 67°44'58,11").*

47-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval umumiy barcha burulishlarni hisobga olgan holda janubiy yoʻnalishda 459 metr, keyin qishloq ichki yoʻlining janubiy tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 105 metr, soʻng umumiy shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1813 metr, soʻngra quruq chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 110 metr masofada qishloq ichki yoʻlidan avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°1'56,37", sharqiy uzunlik 67°44'7,69").*

48-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 213 metr, keyin dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 257 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 295 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 123 metr, keyin quruq chegara chizigʻi orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 75 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 184 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1541 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°1'45,07", sharqiy uzunlik 67°42'36,64").*

49-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 122 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 84 metr, soʻng janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 133 metr, soʻngra dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 57 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 545 metr, soʻng quruq chegara chizigʻi orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 149 metr masofada ariqni kesib oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°1'38,21", sharqiy uzunlik 67°41'56,57").*

50-nuqtadan chegara quruq chegara chizigʻi orqali avval gʻarbiy yoʻnalishda 310 metr, keyin dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 294 metr, soʻng yoʻlning gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda umumiy barcha burulishlarni hisobga olgan holda 181 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 317 metr masofada ariqni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°1'6,22", sharqiy uzunlik 67°40'39,43").*

B dan D gacha Qumqoʻrgon tumani yerlari bilan 51-1 nuqtalar oraligʻidagi chegaralar tavsifi quyidagicha:

51-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi 729 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 609 metr masofani oʻtib zovur boʻyida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°1'41,51", sharqiy uzunlik 67°40'15,09").*

52-nuqtadan chegara chizigʻi avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 507 metr, keyin barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1086 metr masofani oʻtib zovur boʻyidagi 53-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°1'57,05", sharqiy uzunlik 67°39'28,89").*

53-nuqtadan chegara chizigʻi yoʻlning gʻarb tomoni bilan avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 226 metr masofani oʻtib zovur boʻyiga tutashadi va keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 123 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°2'0,81", sharqiy uzunlik 67°39'39,42").*

54-nuqtadan chegara toʻgʻri chegara chizigʻi orqali avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 253 metr, keyin zovurning suv oqimi boʻylab sharq yoʻnalishda 1490 metr masofani oʻtib dala tuproq yoʻliga tutashadi va dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 464 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 193 metr masofani oʻtib yoʻl boʻyidagi 55-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°2'34,84", sharqiy uzunlik 67°40'42,74").*

55-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimiga qarshi avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 334 metr masofani oʻtib, zovurga tutashadi va keyin barcha

burilishlarni hisobga olgan holda zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 803 metr masofada ariqga oʻtadi va keyin ariqning suv oqimiga qarshi sharqiy yoʻnalishda 112 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 70 metr masofada dala yoʻlini kesib oʻtgan holda soʻngra shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan 841 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyidagi 56-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°3'2,17", sharqiy uzunlik 67°41'24,98").*

56-nuqtadan chegara chizigʻi gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 658 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°3'13,96", sharqiy uzunlik 67°41'10,18").*

57-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 729 metr masofani oʻtib yoʻl boʻyidagi 58-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°3'5,27", sharqiy uzunlik 67°40'44,31").*

58-nuqtadan chegara chizigʻi dala yoʻlning sharq tomoni bilan avval janubiy yoʻnalishda 67 metr, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 143 metr masofani oʻtib, ariq bilan tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 116 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 72 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 165 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 66 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 82 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°2'43,44", sharqiy uzunlik 67°40'4,29").*

59-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 110 metr, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 166 metr, soʻng janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 452 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°2'35,39", sharqiy uzunlik 67°39'45,55").*

60-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan avval janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 178 metr, keyin zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 478 metr masofani oʻtib, ariqga tutashadi va soʻng ariqning suv oqimi boʻylab barcha burilishlarni hisobga olgan holda gʻarbiy yoʻnalishda 33 metr, soʻngra janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 451 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 61-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°2'4,88", sharqiy uzunlik 67°39'30,54").*

61-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2880 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 57 metr masofani oʻtib, zovur boʻyidagi 62-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°2'52,76", sharqiy uzunlik 67°37'57,03").*

62-nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan avval umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1880 metr, keyin dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan 148 metr masofani oʻtib, dala yoʻli boʻyida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°3'36,39", sharqiy uzunlik 67°37'13,79").*

63-nuqtadan chegara avval shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi 295 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 125 metr masofada Oqqapchigʻay kanalini kesib oʻtib, soʻng toʻgʻri chegara chizigʻi orqali gʻarbiy yoʻnalishda 37 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°3'47,92", sharqiy uzunlik 67°37'9,13").*

64-nuqtadan chegara chizigʻi avval umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda Oqqapchigʻay kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 993 metr masofani oʻtib, Oqqapchigʻay kanalining chap tomonida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°4'3,42", sharqiy uzunlik 67°37'39,06").*

65-nuqtadan chegara chizigʻi avval 4R-105 “k Darband-g.Boysun-k.Elbayon” avtomobil yoʻlini kesib oʻtgan holda ariqqa tutashadi va umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda arqining suv oqimiga qarshi 1051 metr masofani oʻtib, keyin dala tuproq yoʻliga oʻtadi va dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 49 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1854 metr, soʻngra quruq chegara chizigʻi orqali shimoliy yoʻnalishda 867 metr masofani oʻtib, soy boʻyidagi 66-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°5'40,24", sharqiy uzunlik 67°36'47,45").*

66-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi 478 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1125 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°6'13,89", sharqiy uzunlik 67°37'34,52").*

67-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 471 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 263 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy

yo‘nalishda 1419 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°6'49,58", sharqiy uzunlik 67°38'29,13").*

68-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan avval umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1064 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 425 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 706 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 36 metr, so‘ngra soyga o‘tib soyning shimoliy yo‘nalishda 345 metr, keyin dala tuproq yo‘lini kesib o‘tgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimi bo‘ylab 62 metr, so‘ng jarlik bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 183 metr masofani o‘tib, 69-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°7'59,74", sharqiy uzunlik 67°38'34,67").*

69-nuqtadan chegara chizig‘i avval umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Sho‘rchi soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 2304 metr masofani o‘tib, to‘g‘ri chegara chizig‘idan nomsiz soyga o‘tadi va soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘i bilan shimoliy yo‘nalishda 4114 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 70-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°10'4,78", sharqiy uzunlik 67°36'54,45").*

70-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy yo‘nalishda 3654 metr masofani o‘tib, 71-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°10'24,74", sharqiy uzunlik 67°34'26,51").*

71-nuqtadan chegara chizig‘i nomsiz soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan avval umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2522 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan 627 metr masofani o‘tib, 72-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°11'49,24", sharqiy uzunlik 67°34'41,03").*

72-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan umumiy barcha burilishlarni hisobga olgan holda 361 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 73-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°11'56,18", sharqiy uzunlik 67°34'30,20").*

73-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 534 metr masofani o‘tadi, keyin Xo‘jaipok soyiga tutatashadi va yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan 1321 metr masofani o‘tib, Xo‘jaipok soyining

o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan 74-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°12'13,21", sharqiy uzunlik 67°33'19,55").*

74-nuqtadan chegara chizig‘i qir adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab avval umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1378 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1154 metr masofani o‘tib, 75-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°11'58,50", sharqiy uzunlik 67°31'51,31").*

75-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘idan qir adirliklarga o‘tib avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 91 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1334 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1392 metr masofani o‘tib, 76-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°10'49,55", sharqiy uzunlik 67°30'50,00").*

76-nuqtadan chegara chizig‘i soydan to‘g‘ri chegara chizig‘i bilan o‘tib, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 1341 metr masofani o‘tib, 77-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°11'32,95", sharqiy uzunlik 67°30'46,86").*

77-nuqtadan chegara chizig‘i nomsiz soyning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 28 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 150 metr masofani o‘tib, so‘ng qir adirliklarning suv ayrig‘ichlari bilan shimoliy yo‘nalishda 373 metr masofani o‘tib, 78-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°11'48,47", sharqiy uzunlik 67°30'42,93").*

78-nuqtadan chegara chizig‘i qir adirliklarning suv ayrig‘ichlari bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1003 metr masofani o‘tib, 79-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°12'1,47", sharqiy uzunlik 67°30'10,07").*

79-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishda 369 metr masofani o‘tib 80-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°12'13,29", sharqiy uzunlik 67°30'7,66").*

80-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1211 metr masofani o‘tib, 81-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°12'34,03", sharqiy uzunlik 67°29'25,72").*

81-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i bilan shimoliy yo‘nalishda 245 metr masofani o‘tib, 82-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°12'41,71", sharqiy uzunlik 67°29'25,05").*

82-nuqtadan chegara chizigʻi nomsiz soyning suv oqimi boʻylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1171 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 223 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 83-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°12'53,50", sharqiy uzunlik 67°30'11,37").*

83-nuqtadan chegara chizigʻi soyning suv oqimi boʻylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1611 metr masofani oʻtib, 84-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°13'22,23", sharqiy uzunlik 67°30'49,37").*

84-nuqtadan chegara chizigʻi avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng qirgʻogʻi bilan 1045 metr, soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 365 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 85-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°13'48,05", sharqiy uzunlik 67°30'24,11").*

85-nuqtadan chegara chizigʻi nomsiz soyning suv oqimi boʻylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 3640 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 86-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°14'32,45", sharqiy uzunlik 67°31'50,51").*

86-nuqtadan chegara chizigʻi Xoʻjaipok soyining suv oqimi boʻylab oʻng qirgʻogʻi bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 858 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 622 metr, soʻng gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda1156 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 369 metr masofani oʻtib Xoʻjaipok soyining chap qirgʻogʻida joylashgan 87-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°15'21,84", sharqiy uzunlik 67°30'35,13").*

87-nuqtadan chegara chizigʻi avval janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda Xoʻjaipok soyning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 60 metr masofani oʻtadi, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 412 metr masofani oʻtib, dala yoʻliga tutashadi va soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 375 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 71 metr, keyin gʻarbiy-shimol-gʻarbiy yoʻnalishda 1060 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 91 metr masofani oʻtib,qir adirliklarning suv ayirgʻichlariga tutashadi va gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 906 metr masofani oʻtib 88-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°15'5,34", sharqiy uzunlik 67°29'0,96").*

88-nuqtadan chegara chizigʻi avval qir adirliklarning suv ayirgʻichlariga bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 254 metr masofada dala yoʻliga oʻtib, keyin

yo‘lning g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1464 metr masofani o‘tib, nomsiz soyga tutashadi va so‘ng umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 488 metr masofani o‘tib, so‘ngra qir adirliklarning suv ayirg‘ichlari bo‘ylab avval sharqiy yo‘nalishda 353 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 239 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1374 metr masofani o‘tib, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali Xo‘jaipok soyini kesib o‘tgan holda 255 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Xo‘jaipok soyining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 733 metr masofani o‘tib, Xo‘jaipok soyining o‘ng qirg‘og‘ida 89-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°16'25,29", sharqiy uzunlik 67°28'29,44").*

89-nuqtadan chegara chizig‘i avval nomsiz soyning suv oqimiga qarshi chap qirg‘og‘i bilan umumiy barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 2112 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 115 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 90-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°17'5,57", sharqiy uzunlik 67°29'6,52").*

90-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 708 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 338 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 781 metr masofani o‘tib 91-nuqtaga tutashadi*(shimoliy kenglik 38°17'56,88", sharqiy uzunlik 67°29'31,08").*

91-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali avval umumiy sharqiy yo‘nalishda 1765 metr, keyin sharqiy-shimoliy yo‘nalishda 694 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1290 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 92-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°17'49,34", sharqiy uzunlik 67°31'50,29").*

92-nuqtadan chegara chizig‘i avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 733 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 645 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 730 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 1268 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Oqsuv soyining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 284 metr masofani o‘tib 1-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 38°18'32,55", sharqiy uzunlik 67°33'37,46").*

Xalq deputatlari Oltinsoy tumani
Kengashining
2026-yil 13-maydagi
VII-18-49-8-108-K/26 -son qaroriga
2-ilova

